

2-TOM, 6-SON

O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK MUHITINI YAHSHILASH ORQALI
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Abdurahmonov Komiljon Zokirjon O'gli

DTPI iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

E-mail: komiljon.ecnm@gmail.com

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015-2030-yillar uchun mo'ljallangan "Barqaror rivojlanish maqsadlari"¹ dasturida 17 ta global maqsadning birinchisi etib "Mamlakatlarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish" maqsadini belgiladi. Shunday ekan, mamlakatimizda ham insonlar yashash darajasi va hayot farovonligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2020 yil boshida Prezidentimiz kambag'allikni qisqartirish masalasini davlat siyosatining asosiy vazifasi sifatida belgilab berdi. Umuman, O'zbekistonda kambag'al qatlam mavjudligining tan olinishi sohaga doir siyosatning dastlabki burilish nuqtasi bo'ldi. 2020 yilda mamlakatda kambag'allar soni aholining 12-15 foizini tashkil etishi ochiq-oshkora aytili. Bugungi kunda mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish, insonlar yashash darajasini yanada yaxshilash, barqaror rivojlanish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar, strategiyalar, konsepsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 07.06.2018 yildagi PQ-3777-son² qarori bilan "Har bir oila - Tadbirkor" dasturi tasdiqlandi.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son³ farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi" o'rniga "O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik" vazirligi qayta tashkil etildi.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 12-iyundagi PF-93-son⁴ Farmoniga muvofiq, shuningdek, mamlakatda kambag'allikka qarshi kurashish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish hamda ushbu jarayonga tadbirkorlik subyektlarini manfaatli hamkorlik asosida jalb qilish va ularga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 07.07.2023

¹ <https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs>

² <https://lex.uz/docs/-3772869>

³ <https://lex.uz/ru/docs/-6324756>

⁴ <https://lex.uz/docs/6493069>



2-TOM, 6-SON

yildagi 279-son⁵ qaroriga movofiq “20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutahassis” dasturi ishlab chiqildi.

- Kambag'allikka qarshi ijtimoiy kurashish maqsadida O'zbekistonda “Temir daftari”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftar” lari tuzildi va tizimli ishlar olib borilmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan dasturlar shubhasiz mamlakatimizdagi kambag'alik darajasini qisqartirishga ulkan hissa qo'shdi. Kambag'allik darajasini tahlil qilishdan oldin ushbu dasturlar orqali qilingan ishlar to'g'risida biroz mulohaza yuritsak:

“Har bir oila- tadbirkor” davlat dasturining negizida tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan aholining tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning har bir bosqichida mutasaddi idoralar tomonidan tizimli amaliy yordam ko'rsatilishini ta'minlash ko'zda tutilgan. Bir so'z bilan aytganda oilalarda tadbirkorlik muhitini yaratish orqali ularni doimiy daromad manbayiga ega bo'lishi, o'zlarini ish bilan band qilishi va shu yo'l bilan kambag'allikdan qutulishni ko'zlab tuzilgan dastur xisoblanadi.

“Har bir oila – tadbirkor” Dasturining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

1. Tadbirkorlik bilan shug'ullanishni maqsad qilgan aholiga imtiyozli kreditlar ajratish. Ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning har bir bosqichida amaliy yordam ko'rsatilishini ta'minlash. Bunday amaliy yordam barcha mutasaddi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

2. Aholiga tadbirkorlik bilim va ko'nikmalarini o'rgatish hamda faoliyat yuritishi uchun amaliy yordam ko'rsatish.

3. Tadbirkorlik subyektlarini faoliyatini kengaytirishga amaliy yordam berish orqali qo'shimcha ish o'rinlari yaratish.

4. Mikrofirmalarni, kichik hajmda ishlab chiqaruvchi subyektlar va kasanachilik bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun moliyaviy yordam berish. Aholiga qo'shimcha daromad ishlab topish imkoniyatini yaratish. Dasturning negizida aholidagi mavjud biznes rejalarini va tashabbuslarini moliyalashtirish ya'ni imtiyozli kreditlar berish masalasi turadi.

5. Mahallalarda mini-klasterlar tashkil etish. Bunda tadbirkorlik sohasida ijobiy natijalarga erishgan tajribali tadbirkorlarga bunday faoliyatni yangidan boshlayotgan tajribasi kamroq bo'lgan oilalarni birlashtirish.

⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-6526182#-6527701>



2-TOM, 6-SON

6. Oilaviy tadbirkorlarga ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamini kengaytirish. Ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni savdosini tashkil etuvchi bozor infratuzilmasi obyektlari, xizmat ko'rsatish va savdo shoxobchalarini barpo etish.

7. Bo'sh turgan yer maydonlarini yangi tashkil etilayotgan tadbirkorlik subyektlariga berish. Aholi uchun qo'shimcha ish o'rinlari va daromad manbalarini yaratish.

8. Davlat ro'yhatidan o'tmasdan faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarni aniqlash va ular faoliyatini qonuniylashtirishda yordam ko'rsatish.

Shunga ko'ra, tijorat banklari tomonidan 33 million so'mgacha bo'lgan miqdorda - o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarga (asosiy ish joyiga ega shaxslar bundan mustasno) hamda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlariga har bir mahallaga birlashtirilgan hokim yordamchisining tavsiyasiga ko'ra; 300 million so'mgacha bo'lgan miqdorda - hokim yordamchisining tavsiyalari asosida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlariga uchinchi shaxs kafilligi, sug'urta polislari, kredit hisobiga sotib olinayotgan mol-mulklar garovi va qonun hujjatlari doirasidagi boshqa ta'minot turlariga ko'ra; 300 million so'mdan ortiq miqdorda - hokim yordamchisining tavsiyalariga muvofiq tadbirkorlik subyektlarining investitsiyaviy loyihalarini kreditlashda qonun hujjatlari doirasida belgilangan ta'minot turlariga asosan ajratilishi ko'zda tutilgan. Bunda, 2020-yil 1-yanvardan boshlab kreditlar AT "Xalq banki", "Mikrokreditbank" ATB va "Agrobank" ATB orqali O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi bo'yicha, 2022-yil 1-yanvardan - tijorat banklari tomonidan yillik 14 foiz stavkada berilishi ko'zda tutilgan.

"20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutahassis" davlat dasturi ham mamlakatimizda kambag'allikka qarshi kurashish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish hamda bu jarayonga tadbirkorlik subyektlarini manfaatli hamkorlikka chorlash va ularga qo'shimcha imtiyozlar berishni maqsad qilgan. Ushbu dasturda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishni maqsad qilgan tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlik shartnomalari asosida ixtiyoriy ravishda ishtirok etishlari mumkin. 2023-2024 yillarda ushbu dasturni amalga oshirish uchun 1 milliard AQSH dollari miqdorida kredit liniyalari ochildi va 7 yilgacha muddatga 14 foiz stavkada taqdim etiladi. Nizomga ko'ra, "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan fuqarolar kamida 1 yil davomida ish bilan ta'minlangan va ular jami ishchilar sonining kamida 20 foizini tashkil etgan tadbirkorlar mol-mulk va yer solig'i bo'yicha soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqiga ega bo'ladi, bunda:

- 1 tadan 100 tagacha yangi ish o'rinlari yaratadigan tadbirkorlar uchun mol-mulk va yer solig'ining amaldagi soliq stavkasi 50 foizga;



2-TOM, 6-SON

- 101 tadan 200 tagacha yangi ish o'rni yaratadiganlar uchun 75 foizga kamaytiriladi;
- 200 tadan ortiq ish o'rinlari yaratadiganlar mazkur soliqlarni to'lashdan ozod etiladi.

Quyidagicha miqdorda yangi ish o'rinlari yaratilgan taqdirda ularga nisbatan quyidagi tartibda soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi:

- 51 tadan 200 tagacha yangi ish o'rni yaratadigan tadbirkorlarda soliq auditi o'tkazilmaydi;
- 200 tadan ortiq yangi ish o'rni yaratadigan tadbirkorlarda barcha turdagi soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi.

Mamlakatimizda nafaqat kambag'allikni qisqartirishning iqtisodiy yo'nalishlariga qolaversa ijtimoiy yo'nalishiga ham e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qator ishlar amalga oshirilgan va hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda. Xususan "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" kabi ro'yxatlar shakillantirilib, qishloq hududlari aholisining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga subsidiyalar va kam foizli kreditlar berilmoqda. Bu kabi sayi harakatlar zamirida mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirib qishloq hududlari aholisini xususiy hamda yakka tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullantirish orqali aholi daromadlarini oshirish ko'zda tutilgan.

Birgina 2021-yilning o'tgan davrida yoshlar bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi hisoblangan "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturlari" asosida 430 ming nafar yigit-qizning hayotiy muammolarini hal etish uchun 300 milliard so'm mablag' yo'naltirilgani, 92 ming nafardan ziyod yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 2,3 trillion so'm imtiyozli kreditlar, qishloq joylarda yashayotgan 230 mingdan ortiq yoshlarga dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun 61 ming gektar yer maydoni ajratilgani bu boradagi ishlarning ko'lami tobora kengayib borayotganligining yorqin misolidir.

Qolversa, jamiyatda ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlar bilan "Ayollar daftari"ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni ijtimoiy-huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2022-yilning 31-martdagi 145-son⁶ qarori ham jamiyatda ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir fuqarolarni qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirishga qaratilganligini ta'kidlab

⁶ <https://lex.uz/docs/5932671>



2-TOM, 6-SON

o'tish joyiz. Quyidagi jadvalda mamlakat kam ta'minlangan aholisini umumiy aholidagi

ulushni yillar kesimida ko'rish mumkin.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida kam ta'minlangan aholi ulushi⁷, % da

Ko'rsatkich nomi	2001	2005	2010	2015	2020
Kam taminlangan aholi ulushi	27.5	25.8	17.7	12.8	11.5

Mamlakatda 2001-yilda kam ta'minlangan aholi 27.5 foizni tashkil etgan va 2005-yilda bu ko'rsatkich qariyb 3 foizga kamaygan. 2010-yilda kam ta'minlanganlar mamlakat aholisini 17.7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2015-yilda mamlakatda o'tkazilgan chuqur islohotlar tufayli ushbu ko'rsatkich 5 foizga kamaygan. 2020-yilda esa kam ta'minlanganlar mamlakat aholisini 11.5 foizini tashkil qildi. Natijalardan 2000-yilga nisbatan kambag'allik darajasi 16 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday raqamlar mamlakatda 20 yil davomida aholi daromadi sezilarli darajada oshgani va iqtisodiy munosabatlar yaxshilanganidan dalolat beradi.

Yuqoridagi davlat dasturlari orqali yurtimizda tadbirkorlik muhiti anchagina rivojlandi va bu tendensiya davom etmoqda. Shu o'rinda aholining bandligi va ularning daromadlarida ham sezilarli darajada o'sishni ko'rishimiz mumkin (-jadval).

2-jadval


Aholi real umumiy daromadlari hajmi⁸

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



2-TOM, 6-SON



Umuman olganda, yildan yilga aholi daromadlari o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2023-yildagi aholi real daromadlari 5 yil oldingi daromadlari bilan taqqoslanganda 2 barobarga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan "Har bir oila – tadbirkor" va "20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutahassis" davlat dasturlari doirasida ko'plab yangi tadbirkorlik subyektlari hamda ish o'rinlari yaratilishi ham aholini doimiy daromad manbayiga ega bo'lishiga ulkan hissa qo'shmoqda deb hisoblaymiz. Aholining daromadlari o'sishi o'z navbatida mamlakatimizdagi kambag'allik darajasiga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Kambag'allik darajasini tahlil qilishdan oldin uni qanday hisoblab chiqish tartibi bilan tanishib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi aholisining turmush darajasi va farovonligini o'rganish maqsadida, statistika organlari tomonidan har yili uy xo'jaliklarida tanlanma usulda kuzatuvlar o'tkaziladi. Uy xo'jaliklarida tanlanma kuzatuv o'tkazish uslubiy asoslarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023- yil 24-martdagi 7-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish bo'yicha Nizom" asos bo'lib xizmat qiladi. Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish uslubiyoti Jahon Banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining tavsiyalariga asoslangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida o'tkaziladi. Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish bo'yicha uslubiy nizomga muvofiq, har yili respublikaning barcha hududlarida aholi turmush darajasini o'rganish bo'yicha 16 mingta uy xo'jaliklari




2-TOM, 6-SON

(jami uy xo'jaliklarining 0,2 foizi) tanlanma kuzatuv amalga oshirilishi tizimi yo'lga qo'yilgan.

Kambag'allik darajasini hisoblashda - uy xo'jaligi tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544-son⁹ qaroriga asosan, aholi daromadlarini MIX miqdoriga nisbatan solishtirish orqali hisoblanadi.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kuzatuv o'tkazilgan uy xo'jaliklari soni¹⁰



Uy xo'jaligi – ma'lum bir turar-joy manzilida birga yashovchi, daromadlari yoki mulkini to'liq yoki qisman birlashtirgan hamda ayrim turdagi tovarlar va xizmatlarni (asosan uy-joy xizmatlari va oziq-ovqat mahsulotlarini) birgalikda iste'mol qiladigan shaxslar guruhi.

Kuzatuvlarda uy xo'jaliklari ixtiyoriylik tamoyili asosida ishtirok etib, tanlovga tushgan uy xo'jaliklarida kuzatuv bir oy davomida o'tkaziladi va shundan so'ng boshqa uy xo'jaliklariga almashtiriladi. Kuzatuvga tushgan uy xo'jaliklari inson aralashuvisiz, kompyuterda maxsus elektron dastur orqali tanlanadi hamda kuzatuvlar axborotlashgan tizim orqali to'liq planshetlar yordamida amalga oshiriladi, natijalar avtomatik ravishda umumiy bazaga kiritib boriladi.

4-jadval


⁹ <https://lex.uz/docs/5606697>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



2-TOM, 6-SON

O'zbekiston Respublikasida kambag'allik darajasi¹¹



O'zbekiston Respublikasida "Mahallabay" ishlash tizimini hamda "Har bir oila – tadbirkor" lohida dasturlar ishlab chiqilgani hisobiga mamlakatda kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17%dan, 2022-yil 14% ga tushdi. Xususan, bir yarim yilda 3 mln aholi doimiy daromadga ega bo'lib 1,5 mln aholi kambag'allikdan qutilgan. Natijada 347 ta mahalla kambag'allikdan holi, 1,5 mingga yaqin mahalla esa ishsizlik bo'lmagan hududga aylandi.

O'zbekiston 2023-yil uchun kambag'allik darajasi 11,0 % ni tashkil etdi va o'tganyilga nisbatan 3,1 % punktga kamaydi. O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotlariga asosan:

- 2023-yilda jami 4,1 mln aholi, shundan 2,3 mln nafari doimiy va mavsumiy ish o'rinlarida, 112,8 ming nafari haq to'lanadigan jamoat ishlarida, 1,6 mln aholini o'zini o'zi band qilish hisobiga bandligini ta'minlashga erishildi;
- hokim yordamchilari ko'magida 241,3 ming nafar fuqarolarga ijara asosida yer maydonlari ajratildi;
- **"20 ming tadbirkor 500 ming malakali mutaxassis"** dasturi doirasida 6745 ta tadbirkorlik sub'ektlari bilan 455,0 ming nafar aholini badligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik shartnomalari imzolandi;
- mahallabay ishlash asosida 51 mingga mikroloyihalarni amalga oshirilishi natijasida 206 mingga yangi ish o'rinlari yaratildi;

¹¹ Kambag'allik darajasi Jahon banki va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi bilan hamkorlikda uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuviga asosida hisoblangan.



2-TOM, 6-SON

- 181 ming nafar ishsiz fuqarolar kasb-hunarga o'qitildi.

O'zbekiston respublikasida kimlar o'zi kambag'al hisoblanib ushbu statistikaga kiritiladi degan savolga javobni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Minimal iste'mol xarajatlari qiymati"ni hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risidagi , 27.08.2021 yilda 544-son¹² qaroriga muvofiq har yili minimal iste'mol xarajatlari hisoblab chiqiladi va ushbu ko'rsatkich kambag'allik chegarasi sifatida yuritiladi. Ushbu qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi har yilgi inflyatsiya kutilmalarini hisobga olgan holda ishlab chiqadi.

O'zbekistonda 2021-yil uchun "Minimal iste'mol xarajatlari" yoki "Kambag'allik chegarasi" qiymati bir oyda kishi boshiga 440 ming so'm, 2022-yil uchun 498 ming so'm, 2023-yilda esa 568 ming so'm etib belgilangan.

¹² <https://lex.uz/docs/-5606697>

